

## **BOLALAR ADABIYOTI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METODLAR**

## **ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ХУДОЖЕСТВЕН- НЫХ И ЭСТЕТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПО- СРЕДСТВОМ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.**

## **INNOVATIVE METHODS FOR DEVELOPING STUDENTS' ARTISTIC AND AESTHETIC ABILITIES THROUGH CHILDREN'S LITERATURE**

**ANVAROVA SHOHSANAM A'ZAMJON QIZI**  
**Upgrade LC o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida bolalar adabiyoti orqali badiiy estetika rivojlanishining zamonaviy istiqbollari va modellari haqida aytib o'tilgan, shuningdek, hozirgi kunda o'qitishning dolzarb masalalariga aylangan yangi ta'lim texnologiyalarining o'qitish dasturlariga kirib kelishi hamda bu orqali ta'lim jarayonida qanday o'zgarish va rivojlanish bo'lishi haqida yetarlicha ma'lumot aytib o'tilgan. Maqolada zamonaviy o'qitish ta'limining dolzarbligi va hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun qanday foydali taraflari bor ekanligi aytilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные перспективы и модели развития художественной эстетики у учащихся начальной школы посредством детской литературы, а также внедрение новых образовательных технологий, ставших актуальными в образовании, в образовательные программы, и изменения и развитие, которые произойдут в образовательном процессе. В статье обсуждается актуальность современного образования и его преимущества для нынешнего растущего молодого поколения.

**Abstract:** This article discusses modern prospects and models for the development of artistic aesthetics in primary school students through children's literature, as well as the introduction of new educational technologies, which have become current issues in education, into educational programs, and the changes and developments that will occur in the educational process. The article discusses the relevance of modern educational education and its benefits for the current growing younger generation.

**Kalit so'zlar:** model, STEAM, ijtimoiy yondashuv, integratsiya, modernizatsiya, raqamlashtirish.

**Ключевые слова:** модель, STEAM, социальный подход, интеграция, модернизация, цифровизация.

**Keywords:** model, STEAM, social approach, integration, modernization, digitalization

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bolalar adabiyoti yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitish, estetik didini shakllantirish va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, insonning madaniyati, tafakkuri, ong darajasining ko'rsatkichlaridan biri uning nutqi bo'lib, u til me'yorlariga mos kelishi kerak. Bolalar adabiyoti o'qitishning zamonaviy bosqichi o'qituvchilar va tadqiqotchilarning maktab o'quvchilarining nutq tayyorgarligiga bo'lgan e'tiborining oshishi bilan ajralib turadi. Jamiyatda kishilarning 70-80 foizi tinglash, gapirish, o'qish, yozish, boshqacha qilib aytganda, nutqni semantik idrok etish va uni yaratish bilan bog'liq nutq faoliyati bilan shug'ullanishadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Adabiyot inson ruhiyatini tarbiyalashda, ayniqsa, bolalar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Bolalar uchun o'qish, kitoblar orqali dunyoqarashni shakllantirish, ongini rivojlantirish juda muhimdir. Buning uchun maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshlaridan bolalarni

adabiyotga, badiiy-estetikaga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram Prezidentimiz "Boshlang'ich ta'lim-barcha bilim va tarbiyaning poydevori"-deb ta'kidlaganlar[1]. Adabiyot nafaqat bolalar bilimni oshirishda, balki ularni axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashda ham katta ahamiyatga ega. Kitoblar bolalarga hayotdan o'rganish, turli qahramonlarning xarakterini tushunish va o'zlarini boshqalarning o'rnida his qilish imkonini beradi. Bolalar tarbiyasida adabiyotning birinchi va asosiy vazifasi — ularning ongini rivojlantirishdir. Bu usullar va metodlar orqali bir qancha olimlar faoliyat olib borganlar. Xususan, A.Qahramonov "Bolalar adabiyoti orqali estetik tarbiyani shakllantirish metodlari" asarida turli janrdagi asarlarni o'qitish orqali ularda badiiylik va estetikani rivojlantirish usullari haqida aytib o'tgan[2]. K.D.Ushinskiyning "Tanlangan pedagogik asarlar" kitobida esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish usullari haqida aytib o'tilgan[3]. Ya.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asarida esa, boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qish savodxonligini oshirish bo'yicha kerakli fikr-mulohazalar aytib o'tilgan[4]. Kitoblar bolalar emotsional dunyosini boyitadi, ularga har xil hissiyotlarni tushunishga va boshqarishga yordam beradi. Kitobdagi qahramonlar bilan birga hayajon, baxt, qayg'u, qo'rquv kabi hissiyotlarni boshdan kechirish bolalar uchun juda muhim. Kitoblar bolalarga tilni o'rgatish, so'z boyligini oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi. Adabiyot, ayniqsa, ertaklar, hikoyalar va she'rlar bolaning tasavvurini boyitadi, dunyo haqidagi qarashlarini kengaytiradi. Mantiqiy fikrlash va so'zlashuv qobiliyatining rivojlanishi bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Masalan, ertaklar orqali bolalar qahramonlar orqali

turli ijtimoiy qadriyatlar haqida tushuncha hosil qiladilar. Ular yaxshi va yomonni ajrata olishni, do'stlik, sadoqat, sabr-toqat kabi tushunchalarni o'rganadilar. Bunday o'qish bolalarni kichik ijtimoiy muhitga tayyorlaydi va ularga boshqalar bilan munosabatda qanday bo'lish kerakligini ko'rsatadi.

Asosiy qism. Bolalar adabiyoti vositasida o'quvchilarda badiiy-estetik qobiliyatni rivojlantirish masalasi pedagogika va adabiyotshunoslikda keng qo'llanilgan. Shu kungacha olib borilgan tadqiqotlar, asosan, quyidagi usullar, metodlar va modellar orqali o'rganilgan. Ifodali o'qish-she'r, ertak va hikoyalarni intonatsiya bilan o'qish orqali estetik his shakllanadi, o'quvchilarni obrazni his etish va emotsional qabul qilishga yordam beradi. Suhbat va tahlil metodi-asar qahramonlari, syujet, til vositalari haqida savol-javob qilishga undaydi, badiiy-tafakkur va estetik baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijodiy qayta hikoyalash-asarni o'zgartirib aytib berish, davom yozish, boshqa yakun yasash va bu orqali tasavvur va ijodiy fikrlash rivojlanadi. Rolli o'yin va sahnalashtirish-ertak yoki hikoya asosida dramatisatsiya, obrazli tafakkur, nutq madaniyati va estetik did oshadi. Tasviriy faoliyat va integratsiya-asar asosida rasm chizish va kollaj yaratish, bu orqali o'quvchida adabiyot va san'at integratsiyasi orqali badiiy idrok kuchayadi. Musiqa bilan uyg'unlashtirish-she'r va ertaklarni musiqiy fon bilan o'qish orqali bolada emotsional estetik qabul kuchayadi. Interfaol metodlar-"Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Sinkveyn" bu o'yinlar bolalarda mustaqil estetik fikrni shakllantirishga yordam beradi. Kitobxonlik texnologiyalari-mustaqil mutolaa, kitob kundaligi, kitob taqdimoti kabi metodlar orqali bolada badiiy did va o'qish madaniyati rivojlanadi. Bu usullar hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar

uchun ularni adabiyotga qiziqtirish orqali yosh avlodni atrof-muhitga, tengdoshlariga, ustoz-u murabbiylariga nisbatan mehr-muhabbat ruhini o'stirish uchun tayanch vazifasini bajarmoqda. Adabiyot bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rgatadi, bu esa ularning emotsional intellektini rivojlantiradi. Bolalar adabiyotini o'qish orqali ularning his-tuyg'ulari aniqroq shakllanadi. Ular ba'zan qahramonning qiyinchiliklari va kurashlari bilan birga azoblanishadi, ba'zida esa ularning g'alabasidan xursand bo'lishadi. Bu hissiyotlar bolalarga dunyodagi barcha yaxshi va yomon narsalarni tushunishga yordam beradi. Adabiyot nafaqat axloqiy va emotsional tarbiyani, balki estetik tarbiyani ham

shakllantiradi. Kitoblar, she'rlar va hikoyalar orqali bolalar san'atni, musiqa va madaniyatni anglashni o'rganadilar. Bu jarayon bolalarning tasavvurini kengaytiradi va ularni go'zallikni his qilishga undaydi. Bolalar hayotining estetik jihatlarini rivojlanadi, ular uchun dunyo nafaqat amaliyot va fan, balki san'at va go'zallikdan iborat bo'lishi kerak. Adabiyot bolalar tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega. U bolalar ongini rivojlantiradi, axloqiy va emotsional tarbiya berib, ularni estetik va madaniy jihatdan shakllantiradi. Adabiyot, shubhasiz, bolalar ruhiyatining shakllanishida va hayotga tayyorlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir bola o'zining qahramonlari bilan birga o'sib-ulg'ayib, yaxshi inson bo'lish yo'lida adabiyotdan o'rnak olish imkoniyatiga ega. Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati – u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy

ko‘rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo‘lsa, o‘smirlar uchun yaratilgan adabiyotda hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Hozirgi zamonaviy va raqamlashgan texnologiyalar asriga kelib, o‘quvchilarda badiiylilik va estetika turli rivojlangan usullar yordamida ochib berilmoqda. Xususan, multimodal metod- eng dolzarb va zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, unda audiokitob, animatsion hikoya, interaktiv elektron kitoblar orqali bolalarda estetik tarbiya chuqurlashadi. Bundan tashqari, bu usulda matn, rasm, audio, video, dramatizatsiya, raqamli vositalar birgalikda qo‘llaniladi. Bu metodning dolzarbligining asosiy sabablaridan biri-hozirgi boshlang‘ich ta‘lim raqamlashtirish tizimiga o‘tganligi, bolalar adabiyotini faqat o‘qish emas, “his qilish” muhim masala ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan. Yana bir asosiy modellardan biri-STEAM integratsiyalashgan metodi. Bu ta‘limning asosiy yondashuvi bo‘lib, bir nechta fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘qitishni anglatadi. STEAM ning muhim vazifalaridan biri-o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, muammoni hal qilish, amaliy ko‘nikmalar, jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Misol uchun, boshlang‘ich sinfda STEAM asosida dars o‘tilsa:

\*bola ertak o‘qiydi (Art),

\*qahramon uchun uy maketi yasaydi (Engineering),

\*o‘lchov qiladi(Mathematics),

\*material tanlaydi(Science),

\*komputer yoki multimedia ishlatadi(Technology).

Shu sababli STEAM oddiy nazariy o‘qitish emas, balki “o‘rganish-yaratish-amalda bajarish” metodi hisoblanadi. Bu usul hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan O‘zbekiston maktablarida ham qo‘llanilmoqda. Bu

modellar bo‘yicha bir qancha olimlar ish olib borganlar. Bulardan, multimodallik bo‘yicha Gunther Kress o‘zining “A social semiotic approach to contemporary communication” asaridanafaqat o‘qish balki eshitish yordamida bolalarda estetika rivojlanishi haqida aytib o‘tgan[5]. Kress bilan birga, Theo van Leeuwen multimodel tahlil metodini ishlab chiqqan olim. U “Reading images” kitobida rasm+matn+audio integratsiyasi haqida ma‘lumot berib o‘tgan[6]. John Dewey o‘zining “Art as experience” nomli kitobida san‘at orqali tajriba, estetik idrok, faol o‘quvchi metodini yatarish usulini fanga olib kirgan [7]. Nigora Mirzayeva esa “Developing methods of teaching children’s literature based on the STEAM approach” nomli maqolasida bu loyihaning metodi, raqamli hikoyalar, animatsion qayta hikoyalash hamda multimodal interpretatsiya usullari haqida ta‘kidlagan[8]. Atrofdagi dunyoning go‘zalligini ko‘rish va tushunish qobiliyati hissiyotlar madaniyatini tarbiyalashga, badiiy va estetik didni rivojlantirishga, mehnat va ijodiy faoliyatga, qat’iyatlilikka, o‘zaro yordam tuyg‘usiga hissa qo‘shadi, shaxsning ijodiy o‘zini o‘zi anglashiga imkon beradi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari bolalarni xalq an‘analarini o‘rganish bilan tanishtirishning samarali vositasidir. Bolalar o‘z asarlarini namoyish etish orqali o‘z tengdoshlariga olgan bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini namoyish etadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, kuzatish, taqqoslash, taxmin qilish, xayol qilish uchun bir qator maxsus vazifalar mahorat orqali ma‘naviyatning yuqori intellektini shakllantirishga xizmat qiladi. Yosh bolalarning rivojlanishi atrofdagi dunyoning estetik rivojlanishiga tayyorgarlik bosqichi sifatida qaralishi kerak. Bu butun hissiy apparatning o‘ziga xos sezgirligini va obyektlarning (obyektlar va hodisalar) eng

yorqin xususiyatlari va fazilatlarini idrok etishga hissiy munosabatni rivojlantirishdan boshlanadi. Asta-sekin, o'rganish tufayli bolalar o'zlarining kombinatsiyasida ekspressiv turli xil vositalarga, eng oddiy badiiy tasvirlarga hissiy sezgirlikni

rivojlantiradilar. Bolalar nafaqat ko'rishni, balki san'at asarlaridagi asl estetik fazilatlarni ham anglay boshlaydilar. Bolalarning san'at bilan bog'liq faoliyati har doim tasodifiy, quvonchli intilish, ijodiy tasavvur, tashabbus bilan to'yingan bo'lishi kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Sh.M.Mirziyoyev " O'zbekiston Respublikasi xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" 2018-yil 14-fevral.
- 2.A.Y.Qahramonov "Bolalar adabiyoti orqali estetik tarbiyani rivojlantirish metodlari" -2025-yil 27-aprel/ pedagogik jurnal.
- 3.K.D.Ushinskiy " Tanlangan pedagogik asarlar" 1959-yil nashr qilingan.
4. Ya.Y.Komenskiy "Buyuk didaktika" 1659-yil Amsterdamda nashr qilingan.
5. Gunther Kress "A social semiotic approach to contemporary communication" 2010-yil chop etilgan, nashriyoti "Routledge", London va New York.
6. Theo van Leeuwen "Reading images" 1996-yil New York.
7. John Dewey "Art as experience" 1934-yil, Minton, Blach&Company, New York.
8. Nigora Mirzayeva "Developing methods of teaching children's literature based on the STEAM approach" 2026-yil 1-may. Maktabgacha va maktab ta'lim jurnali.
9. www.pedagog.uz